

---

## “Ichki ishlar organlari xodimlari kuni” bayrami munosabati bilan Qo’shtepa tumanida tantanali tadbir bo’lib o’tdi

25 - oktyabr O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlari xodimlari kuni munosabati bilan Qo’shtepa tumanidagi Madaniyat markazida tantanali tadbir bo’lib o’tdi. Unda sektor rahbarlari hamda soha vakillari ishtirok etishdi.

Tadbirda tuman hokimi A.Abdullayev so‘zga chiqib tumanimiz hududida jinoyat va huquqbuzarliklarni oldini olish borasida ichki ishlar organlari tomonidan tezkor-profilaktik chora-tadbirlar olib borilayotgani, bunda har bir xodimning alohida o‘rni borligini e’tirof etib, bayram bilan samimiy tabrikladi.

Shundan so‘ng o‘z xizmat vazifalariga sidqidildan yondashib, jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish, jamoat tartibini saqlash bilan bir qatorda tumanimiz hududida olib borilayotgan tadbirlarda faol ishtirok etib kelayotgan fidoiy xodimlarning bir guruhiga 25 oktyabr - Ichki ishlar organlari xodimlari kuni munosabati bilan “Tashakkurnoma” va qimmatbaho esdalik sovg‘alari topshirildi.

Shuningdek, tadbir davomida nafaqa yoshiga yetgan fidoiy xodimlarga ham milliy urf-odatlarimizga ko‘ra esdalik sovg‘alari berildi.











































2024-10-25 17:39:54